

## YENGIL ATLETIKA BO'YICHA MUSOBAQALARNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti professor, dotsent*

*Arislonov Toshtemir Rashidovich*

*Shahrisabz davlat pedagogika institut o'qituvchisi*

*Bozorov O'tkir Axatovich*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakuleti Jismoniy madaniyat*

*xotin-qizlar sporti yo'nalishi 1-22 guruh 2-kurs talabasi*

*Muratova Feruza Alimovna*

**Annotatsiya:** Yengil atletika bòyicha musobaqalarning turlari va ularning tasnifi, musobaqalarni tashkil etish qoidalari, xakamlar hayati tarkibi va ularning vazifalari, musobaqa nizomi va uning bandlari , yengil atletika bòyicha musobaqa qoidalari va musobaqa hujjatlari

**Kalit sòzlar:** Mustaqillikka erishgandan sòng sport òyinlariga bòlgan e'tibor, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish , musobaqalarga bòlgan e'tibor , " Umid nihollari" , "Barkamol avlod " , musobaqalari , musobaqa ishtirokchilari, jamoaviy òyin turlari , yengil atletika bòyicha musobaqa turlari, kubok musobaqalari.

Avvalombor , yengil atletika aslida nima ekanligi , yengil atletika sport turiga nimalar kirishini bilishimiz kerak deb òylabman. Undan keyin esa yengil atletikada musobaqalarni tashkillashtirish va uni haqida umumiy ma'lumotlar bilan tanishsak bòladi. Yengil atletika yunoncha sòzdan olingan bòlib atletikos - kurashchilarga xos degan ma'noni anglatib kuch va chaqqonlikni rivojlantiruvchi mashqlar yigindisidir va unga yugurish , sportcha yurish , balandlikka va uzunlikka sakrash , nayza uloqtirish kabi sport turlari kiradi. Undan tashqari oxirgi ma'lumotlarga kòra 50 dan ziyod mashq turlari mavjuddir. Yengil atletika bo'yicha musobaqalar asosan ochiq havoda (stadion, katta yo'l trassalarida, shahar xiyobonlarida) va yopiq inshootlarida (sport manejarida, zallarida) o'tkaziladi. Yengil atletika bo'yicha musobaqalar quyidagi guruhlariga bo'linadi. 1. Shaxsiy birinchiliklar. 2. Jamoaviy. 3. Shaxsiy va jamoaviy. Shaxsiy birinchilik musobaqalarida g'oliblar olgan o'rinlari bo'yicha aniqlanadi. Jamoaviy musobaqalarda esa jamoalar o'rtasida o'rnini aniqlanadi. Shaxsiy va jamoaviy musobaqalarda esa ham shaxsiy o'rinlar xam jamoaviy o'rinlar aniqlanadi. Ya'ni , òyinchilar bir vaqtning òzida ular òzlari uchun ham jamoadoshlari uchun ham butun mas'uliyatni olishlari kerak bòladi. Endi esa g'oliblarni mukofotlash haqida gaplashsak , musobaqalar quyidagi turlarga bo'linadi: kubok musobaqalari, birinchiliklar va chempionatlarga bòlishimiz mumkin . Kubok musobaqalarida g'oliblarga ko'chma kubok topshiriladi bu musobaqalar kamida har yili yoki ikki yilda bir marotaba

o'tkaziladi. . Chempionatlarda esa aksincha faqatgina g'oliblar aniqlanmay chempion unvoni berish uchun har yili yoki ikki yilda bir marotaba musobaqalar o'tkaziladi. Chempion unvonini har bir sport turida olish uchun taqvim rejaga kiritilgan musobaqlarda ishtirok etish kerak bòladi. Yengil atletika musobaqa maqomlarini 4 darajaga ajratish mumkin: Oliy, birinchi, ikkinchi va uchinchi. Oliy darajadagi musobaqalarga: jahon va qitalararo musobaqalar, Olimpiada o'yinlari, Jahon chempionati va kubogi, Osiyo kubogi va chempionatlari, Osiyo o'yinlari hamda qit'a birinchiliklari. Birinchi darajali musobaqalarga: davlat miqyosida musobaqalar kiradi. Bular O'zbekiston Respublikasi yengil atletika federatsiyasi tomonidan o'tkaziladi. Unda Respublika kubogi va chempionatlari. Universitetlarda, "Barkamol avlod", "Umid nihollari" sport musobaqalarining final bosqichlari kiradi. Ikkinchi darajali musobaqalarga esa shaharlar va yagona respublikamiz Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosidagi musobaqalar, va sònggisi uchinchi darajali musobaqalarga: bular viloyat, tuman chempionatlarini olishimiz mumkin.

Yuqorida tanishib chiqqanimizdek, mustaqillikka erishganimizdan sòng yengil atletika sport turiga ham alohida e'tibor qaratilib boshlandi. Yurtboshimiz qarorlari bilan sportchilar òrtasida bòladigan musobaqalar va ular uchun atalgan sovrinlarga ham e'tibor kuchaya boshladi. Endi esa yengil atletikadagi sport musobaqalariga tòxtaladigan bòlsak, bu turdagi musobaqalar, asosan, ochiq havoda (masalan, stadion, ochiq katta yòl trassalarida, maxsus yòlakchalarda, shahar xiyobonlari) kabilarda òtkaziladi. Ochiq havo va kenglikda joylashgan yer maydoni juda ham muhim ahamiyatga ega. Yengil atletika bòyicha musobaqalarni quyidagi guruhlariga bòlishimiz mumkin: shaxsiy, jamoaviy, shaxsiy va jamoaviy. Shaxsiy musobaqalarda shaxs yolgiz òzi uchun kurash olib boradi va sovringa ham yolgiz òzi egalik qiladi. Jamoaviy musobaqalarda esa butun mas'uliyat jamoa kesimida bòladi va butun bir jamoa g'oliblik uchun harakat qiladi. Shaxsiy va jamoaviy òyinlarga keladigan bòlsak, òyinchilarning ham shaxsiy ham jamoaviy rolini juda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Undan tashqari, musobaqalar quyidagi guruhlariga bòlinadi kubok musobaqalari, birinchiliklar va chempionatlarga. Bularning ham albatta òziga yarasha taqdirlash doirasida farqlanadi. Musobaqani ham tashkillashtirish uchun hujjatlar ustida ishlanadi va unga kerakli bòlgan barcha jihozlar, materiallar, ishtirokchilarning mavjudligi tekshiriladi, xakamlar hay'ati ham muhim rol òynaydi, òyin davomida òyinchilar tògri baholay borishi, ularga haqqoniy holda ballarini aytib borishi, keyin esa musobaqa davomida òyinni tomoshabinlarga tògri yetkazib berish muhim sanaladi. Shuningdek, musobaqalarda kotibiyatning ham muhim òrni bor, ya'ni musobaqalardagi barcha tashkiliy ishlar uning zimmasida bòladi, masalan, òyinchilarni mavjudligini va xavfsizligini, musobaqa uchun barcha kerakli materiallar, jihozlar, rasmiy hisobotlar topshirish, g'olib ishtirokchilarning keyingi pògona òtish mavjudligi, ishtirokchilarni joylarga, seriyalarga taqsimlash yòli, musobaqa davomida ròy berishi

mumkin bòlgan anglashimovchilik va kamchiliklarni oldini olish , mas'uliyatni òz zimmasiga olish va sònggisi esa texnik hisobot òz vaqtida yetkazib berishdir. Yengil atletikada musobaqalarda , oliy darajali va birinchi darajali , ikkinchi darajali kabi darajalarga bòlib olishimiz mumkin. Oliy darajadagi musobaqalar albatta jahon va qit'alararo, jahon chempionati , jahon kubogi kabilar. Birinchi darajali musobaqalar esa davlat miqyosida bòlib ma'lum bir hududda va ikkinchi darajalari esa shaxarlar va Qoraqolpoğiston kesimida òtkaziladi. Musobaqalar vaqtlar ma'lum bir sxema , jadvallar asosida joylashtirilib boriladi , oliy darajali òyinlarda chet el òyinchilari vaqtiga qaralsa , birinchi va ikkinchi darajalarida esa òsha davlat doirasida olib boriladi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, yengil atletika musobaqalariga tashkillashtirish uchun birinchi navbatda òyinchilarning mavjudligi , ularning soğligi haqida muammolar bartaraf etilishi , ya'ni , ular tibbiy kòrikdan òtishlari lozimdir. Keyin esa ular uchun zaruriy jihozlar va ularning musobaqa turlariga kòra musobaqa maydonlari bilan ta'minlanishi shart. Eng sònggisi esa hakamlar òyinchalarga haqqoniy va ularning natijalari esa haqqoniy tarzda hisoblanib borishi muhim ròl òynaydi deb òylayman. Agar yuqoridagi talablarga musobaqa javob bera olmasa sportchilarning ya'ni òyinchilarning musobaqalarga qizishi yòqolishiga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ozolin N. G tahriri ostida Yengil atletika . T ., 1971y
2. Qudratov R. K. Yengil atletika . Òquv qòllanma . 2012 y
3. Òzbekiston Respublikasining " Jismoniy tarbiya va sport tòğrisida" gi Qonuni. 2000 yil 26-may yangi taxrirda
4. Normurodov A. N. Yengil atletika va uni òqitish metodikasi. T., 2011 y.
5. Andris E. R., Kudratov R. K. Yengil atletika òquv qòllanma . Toshkent 1998 y
6. Ozolin N. G tahriri ostida Yengil atletika T., 1971 y